

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI


“IQTISODIYOT” KAFEDRASI



**Mavzu: “2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur va uning
iqtisodiy mohiyati”**

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR:



O'qit: Q.I. Xamrayev

BAJARDI: Iqtisodiyot ta'lim

yo`nalishi 402-iqt guruhi talabasi

Atadjanov Dilmurod



Kurs ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi
_____sonli bayonnoma “_____” _____2015 yil.

Urganch – 2015

Mavzu: 2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dastur va uning iqtisodiy mohiyati

Reja:

Kirish

I. Asosiy qism

1.1. 2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dasturda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari.

1.2 2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish.

1.3. 2015 yilga qadar investitsiya dasturiga muvofiq O'zbek Milliy avtomagistrali tarkibidagi 1487 km avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiya qilinishini rejalashtirish

1.4. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan investitsion dastur

1.5. Tarkibiy o'zgartirishlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni rivojlantirish

I I. Xulosa va takliflar

III.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Dunyoning ko'pchilik davlatlari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'siridan chiqib keta olmayotgan sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash, bozor islohotlarining yanada chuqurlashtirilishi natijasida yildan-yilga salmoqli natijalar qo'lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o'sish yo'nalishi mustahkamlanib bormoqda. Bunda Prezidentimiz I.Karimov tashabbusi asosida ishlab chiqilgan Inqirozga qarshi dasturning to'liq va izchil amalga oshirilayotganligi xamda iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha barcha imkoniyatlar safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu erishilgan yutuqlarni mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov: "Mamlakatimizda 2011 yilda 2010 yilga nisbatan 13,6 foizga ko'p, ya'ni 9 milliard 700 million AQSh dollariga teng miqdordagi investitsiyalar o'zlashtirildi, bu yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizini tashkil etadi. Ushbu investitsiyalarning salkam 72 foizi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga, jumladan, 38 foizga yaqini asbob-uskuna va ilg'or texnologiyalar sotib olishga yo'naltirildi. Shu boradagi umumiy qo'yilmalar hajmida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi 28,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori esa 2 milliard 400 million dollardan ziyodni tashkil etdi"—deb ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni samarali o'zlashtirish hamda investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda.

Ustuvor soxalarni belgilash, iqtisodiyotda chukur tarkibiy uzgarishlarni amalga oshirish, tarmoklarni anik maksadli investitsiyalash evaziga ta'minlandi. Barcha investitsiyalarning kariyb uchdan ikki kismi ishlab chikarish ob'ektlari kurilishiga yunaltirildi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tarkibiy siljishlar va ustivor yo'nalishlar. Shuni ta'kidlash lozimki, makroiqtisodiy barkarorlikni ta'minlash yagona, pirovard maksad emas. YaIM tarkibini takomillashtirish, bozor tan oladigan, kishilarning kundalik extiyojlarini bevosita kondiradigan, sifatli, eksport talablariga javob beradigan tovar va xizmat turlarini ishlab chikarishni muttasil kupaytirib borish muxim axamiyatga ega. Odatda isloxotlar isloxotlar uchun emas, balki inson faravonligi uchun amalga oshirilgandagina chukur mazmun kasb etadi, kishilarni samarali mexnatga rahbatlantiradi.

Inflyatsiya va ishsizlikning oldini olish. Iqtisodiyotda inflyatsiya xodisasi xam uchrab turadi. Inflyatsiya deganda narxlarning mukim ravishda usib borishi natijasida pul birligining kadsizlanishi tushuniladi.

Inflyatsiya yuz berganda xamma tovarlar narxi oshib, narxning umumiy darajasi yukoriga kutariladi. Natijada pul birligining xarid kuvvati kamayadi, muayyan tovarni sotib olish uchun oldingidan kuprok pul sarflanadi.

2011-2015 yillarda jami investitsiya hajmi 77,4 milliard dollar bo'lgan sanoat, infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan to'rtta bir-biri bilan o'zaro bog'liq strategik dasturning amalga oshirilishi, bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi va yalpi ichki mahsulotni 1,5 barobar ko'paytirishni ta'minlaydi.

Iqtisodiyotda tarkibiy tub o'zgarishlarni faol davom ettirish yaqin yillarda yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat ulushini, birinchi navbatda, energetika, neft-gaz-kimyo, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika, zamonaviy qurilish hamda pardozlash materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish hisobiga 24 foizdan 28 foizga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, kelgusi yillarda ijtimoiy soha va xizmat ko'rsatish sektori yanada ravnaq topadi, infratuzilma loyihalari amalga oshirilib, turar-joy obyektlari, shu jumladan, qishloq joylarda foydalanishga topshiriladi.

Dasturda respublikamizning yetakchi tarmoqlari va umuman iqtisodiyotini rivojlantirish tendensiyalari, uning tarkibi va boshqaruv tizimidagi sifat o'zgarishlari tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Mustaqillik yillarida tizimli tarkibiy tub o'zgarishlarning izchil amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston iqtisodiyoti bir yoqlama, asosan xomashyo yetkazib berish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yo'naltirilgan mamlakatdan iqtisodiyotning zamonaviy industrial sektori, yuqori texnologiyali tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish alohida o'rin tutadigan, diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarish tuzilmasiga ega davlatga aylandi.

1. 2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dasturda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari.

Respublika sanoatini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatdoshligini yanada oshirish maqsadida:

1. 2011 — 2015 yillarda respublika sanoatini rivojlantirishning asosiy vazifalari va ustivor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

struktura hosil qiluvchi tarmoqlarni va umuman sanoatni rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli istiqbollarni ishlab chiqish, shu asosda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish;

vatanimiz sanoat mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish, respublika sanoati va umuman iqtisodiyotini rivojlantirishning jahon kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga bog'liqligini kamaytirish maqsadida normativ ko'rsatkichlar va tariflarning barqarorligini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining jahon mehnat taqsimotidagi roli va o'rni yuksalib borishini ta'minlaydigan energetika, neft-gaz-kimyoy, kimyoy, to'qimachilik va engil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika kabi ustivor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish;

sanoat korxonalarini keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni bilan jihozlash, sanoat tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va ilg'or innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish, sanoat uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni kengaytirish;

ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xom ashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o'sib borishini, eksportga mo'ljallangan raqobatdosh sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ularni sotish bozorlari kengaytirilishini ta'minlash;

ichki sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish mahalliyashtirilishini yanada rivojlantirish, sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, sanoat korxonalarini mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o'rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilishini, yangi ish joylari yaratilishi hamda aholining ish bilan bandligi o'sishini, odamlarning daromadlari va turmush darajasi yanada oshib borishini ta'minlash;

mehnat unumdorligini o'stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, nobudgarchiliklar va unumsiz sarf-xarajatlarni bartaraf etish hisobiga sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini muttasil oshirib borish;

sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda uning tashqi bozordagi raqobatdoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli tarzda tatbiq etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 30 iyuldagi F-3471-son farmoyishiga muvofiq tashkil qilingan Maxsus ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan 2011 — 2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi Dastur ma'qullangan, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

2011 — 2015 yillarda respublika sanoatini rivojlantirish va uning tarkibini diversifikatsiya qilishning maqsadli ko'rsatkichlariga muvofiq;

moliyalashtirish manbalari belgilangan va kelishilgan, sanoatda amalga oshiriladigan va amalga oshirishga tayyorlab qo'yilgan investitsiya loyihalari ro'yxatiga muvofiq;

ishlab chiqish (xorijiy sherikni tanlash, moliyalashtirish shartlari va manbalarini aniqlash) bosqichida bo'lgan sanoatdagi yangi investitsiya loyihalari ro'yxatiga muvofiq;

dastlabki tarzda ishlab chiqilayotgan sanoatdagi istiqbolli investitsiya loyihalari ro'yxatiga muvofiq.

investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, birlashmalar va korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining rahbarlari zimmasiga tasdiqlangan dasturiy tadbirlarning amalga oshirilishini hamda ob'ektlar belgilayotgan muddatlarda ishga tushirilishini ta'minlash yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklangan.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Iqtisodiyot vazirligi hamda boshqa manfaatdor tuzilmalar bilan birgalikda bir oy muddatda iqtisodiy faoliyat turlarining amaldagi klassifikatori va yalpi ichki mahsulotni hisoblash metodikasini tanqidiy qayta ko'rib chiqiladi, bunda sanoat ishlab chiqarishni hajmlari hamda uning mamlakat iqtisodiyoti tarkibidagi ulushi g'oyat aniq va to'liq hisobga olinishini ta'minlash nazarda tutiladi.

4. Investitsiya loyihalarining tashabbuskorlari — davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari O'zbekiston Respublikasi «Davarxitextqurilish» qo'mitasi bilan birgalikda Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarining zarur loyiha hujjatlari o'z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishib olinishi va tasdiqlanishi ta'minlanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi:

bir oy muddatda investitsiya loyihalarining tashabbuskorlari — davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorning 2 — 4-ilovalariga kiritilgan investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishning tarmoq jadvallarini, shuningdek hududiy investitsiya loyihalarining manzilli ro'yxatlari tasdiqlanadi;

har yili Investitsiya dasturini shakllantirishda ushbu qarorga muvofiq amalga oshirilishi nazarda tutilgan investitsiya loyihalarini belgilangan tartibda unga kiritiladi.

6. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik, yirik va strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha idoralararo kengash (R.S. Azimov) doimiy asosda ishlarni muvofiqlashtirib boradi hamda sanoatdagi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tezkorlik bilan hal etadi va zarur

hollarda ushbu Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalari ro'yxatiga hamda asosiy parametrlariga aniqliklar kiritadi.

7. Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, korxonalariga loyihalarning tasdiqlangan dastlabki TIA lari asosida hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro moliya institutlari, tashkilotlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, yirik hamda strategik muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari bo'yicha idoralararo kengash qaroriga binoan quyidagilarni amalga oshirish huquqi berilgan:

investitsiya loyihasi bo'yicha TIA hamda ish hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda, sanoat ob'ektlariga tutash muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlari bo'yicha qurish-montaj ishlarini bajarish;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining ekspert xulosalari asosida — tuzilgan va belgilangan tartibda ro'yxatga qo'yilgan shartnomalar asosida ishlab chiqarish muddati uzoq bo'lgan uskunalarni xarid qilishga avans (bo'nak) ajratib berish.

8. Quyidagilar:

injiniring qilish, etkazib berish va ob'ektlarni «tayyor holda topshirish» shartlarida qurish bo'yicha tender savdolari yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalari yuzasidan TIANi tasdiqlagan holda bir stadiyali tartibda loyiha hujjatlarini tayyorlashga;

tijorat banklariga va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga Dasturga kiritilgan, sanoatning bazaviy tarmoqlaridagi investitsiya loyihalari bo'yicha loyihadan oldingi hamda loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga imtiyozli kredit mablag'larini ajratishga, shu jumladan ularning qiymatini keyinchalik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladigan kreditlar summasiga qo'shishga ruxsat etiladi.

9. Dasturga kiritilgan loyihalarni amalga oshirish doirasida Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan uskunar, materiallar va butlovchi buyumlar 2016 yilning 1 yanvariga qadar muddatga bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi.

“O'zbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi joriy yil oxirigacha 28 investitsiya loyihasini nihoyasiga yetkazadi. Milliy matbuot markazida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida shu haqda ma'lum qilindi.

“O'zbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradigan 290 ta korxonadan ip, mato, tikuvchilik, tikuvchilik-trikotaj, paypoq buyumlari kabi ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ular orasida O'zbekistonda xorijiy kapital qo'yilmalarini himoya qiladigan me'yoriy-huquqiy baza va qulay imtiyoz hamda preferensiyalar tizimi mavjudligi tufayli tashkil etilgan ko'plab qo'shma korxonalar bor. Prezidentimiz Islom Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilingan “2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida” va 2011-yil 27-dekabrda imzolangan “O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida”gi

qarorlari to'qimachilik sanoati uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi ushbu hujjatlar doirasida joriy yilda umumiy qiymati 194,8 million dollarlik 28 investitsiya loyihasini amalga oshirdi va natijada 3,7 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. "O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvi raisi Ilhom Haydarov o'z chiqishida shularni qayd etdi.

Poytaxtimizda Shveysariyaning mashhur Maschinenfabrik Rieter AG mashinasozlik kompaniyasi bilan hamkorlikda to'qimachilik uskunalarini ishlab chiqarish korxonasi tashkil etilishi muhim loyihalardan biridir. Mazkur loyiha "O'zbekengilsanoat" va Maschinenfabrik Rieter AG o'rtasida tuzilgan shartnoma doirasida amalga oshirilmoqda. Bunda mamlakatimiz to'qimachilik korxonalarini milliy valyutada raqobat narxlarida va qulay muddatlarda yuqori texnologiyali uskunalar bilan ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Loyihaning dastlabki bosqichida lentali va taroqli mashinalar, ikkinchi bosqichida xalqali yigiruv mashinalarini ishlab chiqarish ko'zda tutilgan bo'lsa, uchinchi bosqichda metallga ishlov berish va kukunli bo'yash sexlarini ishga tushirish rejalashtirilmoqda. Bugungi kunda birinchi navbat foydalanishga topshirildi va buning natijasida 40 yangi ish o'rni yaratildi.

Xorazm viloyatidagi "Shovot tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yigiruv ishlab chiqarishining tashkil etilishi ham muhim investitsiya dasturlari sirasiga kiradi. Yiliga besh ming tonna ip ishlab chiqarish quvvatiga ega mazkur loyihaning umumiy qiymati 25 million dollarni tashkil etadi. Ushbu korxonada faoliyati yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, ijtimoiy yo'nalishlarga ham qaratiladi.

"O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi rahbariyatining aytishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasida "Elite Stars Textil" mas'uliyati cheklangan jamiyatida yigiruv korxonasini tashkil etish, Buxoro viloyatida yangi "Buxoro energo tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatining ishga tushirilishi, Farg'ona viloyatidagi "Farg'ona Turon Tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatidagi yigiruv korxonasini kengaytirish ishlari ham e'tiborga loyiqdir.

Umuman, joriy yil oxirigacha 28 loyihaning hayotga to'liq tatbiq etilishi ip ishlab chiqarishni 60,5 ming tonnaga, ip gazlamani 7,5 million pogon metrga, trikotaj polotnani 6,2 ming tonna, tikuvchilik-trikotaj buyumlarini 3,7 million donaga ko'paytirish, 40 dona lentali uskuna ishlab chiqarish imkonini beradi.

Tadbirda 2013-yilda kompaniya faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilishga yordam beradigan yangi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish ta'kidlandi. Paxta tolasini qayta ishlash hajmini oshirish uchun yangi quvvatlarning ishga tushirilishi tayyor mahsulotlar eksportini ko'paytirishga xizmat qiladi.

"O'zbekengilsanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi joriy yilning birinchi choragida Prezidentimiz Islom Karimovning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor

yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi qarorida koʻzda tutilgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash boʻyicha sakkizta investitsiya loyihasini amalga oshirdi.

Toʻqimachilik sanoatini izchil rivojlantirish Oʻzbekiston eksport siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridandir. Barqaror xomashyo bazasining mavjudligi, paxta tolasining yuqori sifati, resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengligi, yuqori malakali ishchi kuchi tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini oshirmoqda. Mamlakatimiz eksport salohiyatini xomashyodan yuqori qoʻshimcha qiymatga ega tayyor mahsulotga reja asosida qayta yoʻnaltirish ishlab chiqarishi tugallangan zamonaviy toʻqimachilik komplekslarini tashkil qilishni taqozo etmoqda.

“Oʻzbekengilsanoat” davlat aksiyadorlik kompaniyasida umumiy qiymati **26,87** million AQSH dollariga teng sakkizta investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan shu yilning oxirigacha qoʻshimcha 12,6 ming tonna yigirilgan ip, 9,5 million dona trikotaj buyum, 530 tonna boʻyalgan trikotaj polotno olish va 1 ming 400 nafardan ortiq kishini doimiy ish bilan taʼminlash moʻljallanmoqda.

Shunday investitsiya loyihalaridan biri “Oʻzbekengilsanoat” DAK tarkibiga kiradigan poytaxt viloyatidagi “Plasteks” masʼuliyati cheklangan jamiyatida amalga oshirildi. Paxta tolasining ikkinchi navidan yuqori sifatli ip ishlab chiqarishga moʻljallangan yangi kompleksning qiymati 14 million dollarni tashkil qildi. Ayni paytda korxonada yiliga 5,8 ming tonna ip ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yangi kompleks sifat va xavfsizlik boʻyicha barcha jahon standartlariga javob beradi. Bu yerda Italiya, Germaniya, Shveysariyaning yetakchi toʻqimachilik-mashinasozlik kompaniyalarida ishlab chiqarilgan yangi avlod texnologik uskunalari oʻrnatilgan boʻlib, bu ishlab chiqarishni xomashyo tayyorlashdan to tayyor mahsulotni qadoqlashgacha xalqaro talablar darajasida tashkil etish imkonini berdi.

Zamonaviy texnologik va qurilish-montaj normalariga javob beradigan “Plasteks” yigiruv fabrikasi 2009 yilda foydalanishga topshirilgan edi. Halqali va pnevmoyigiruv dastgohlarida ip ishlab chiqarishga yoʻnaltirilgan mazkur fabrika toʻquvchilik korxonalarini sifatli xomashyo bilan taʼminlamoqda.

“Plasteks” masʼuliyati cheklangan jamiyati bosh direktori Asqar Inogʻomovning aytishicha, davlatimiz rahbari va Oʻzbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qator hujjatlar toʻqimachilik tarmogʻi ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, sotib olingan yoki ishonchli boshqaruvga topshirilgan mulk negizida qayta tashkil etilayotgan toʻqimachilik korxonalarini uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilgan. Davlatimiz tomonidan toʻqimachilik tarmogʻining jozibadorligini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat xorijiy, balki mahalliy sarmoyadorlar bilan ham yirik shartnomalar tuzish imkonini bermoqda. Faqat mamlakatimiz sarmoyadorlari mablagʻlari hisobidan tashkil etilgan “Plasteks” yigiruv fabrikasi bunga yaqqol misol boʻla oladi.

Avvaliga fabrikada kard va taroqli liniyalardan iborat bitta halqali yigiruv kompleksi faoliyat koʻrsatdi. Qoʻshimcha mablagʻlarni jalb qilish evaziga paxta

tolasining ikkinchi navidan ip ishlab chiqarish bo'yicha pnevmoyigiruv kompleksi ham ishga tushirildi. Bu yerda o'rnatilgan uskunalar ishlab chiqarish jarayonini ikki baravar tezlashtirish va yiliga qariyb 8,3 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash imkonini bermoqda. Muxtasar aytganda, korxonada yiliga 12 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash va 9 ming tonnadan ziyod yuqori sifatli kalava ishlab chiqarish quvvatiga ega.

“Plasteks” fabrikasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar maxsus laboratoriyada tekshiruvdan o'tkazilmoqda va bu ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida uning sifatini nazorat qilish imkonini berayotir.

Korxonamiz bazasida ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy uslublaridan foydalanilmoqda, – deydi Asqar Inog'omov. – Vaqtni tejash va uskunalardan yanada unumliroq foydalanish maqsadida fabrika ishchilari uch smenada mehnat qilmoqda. Ular uchun barcha maishiy shart-sharoitlar yaratilgan. Ma'muriy binoda kichkina mehmonxona ham bor. Bundan tashqari, korxonada hududida avariya holatlarida elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan mustaqil elektr transformatorli stansiyalar va generatorlar, yong'inni o'chirish tizimi uchun suv to'planadigan va saqlanadigan hovuzlar, omborxonada inshootlari mavjud. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy to'qimachilik korxonasiga xos barcha zarur sharoitlar yaratilgan.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, yangi kompleksning ishga tushirilishi qo'shimcha 150 ish o'rnini yaratish imkonini berdi va endi ishlab chiqarish jarayoniga 500 kishi jalb etildi. Xodimlar tarkibini shakllantirishda yosh mutaxassislar – kasb-hunar kollejlari, birinchi navbatda, Yangiyo'l shahri va yaqin tumanlardagi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga alohida e'tibor berildi.

Ish beruvchilar bilan korxonada ishchilarining hamkorligi uzoq istiqbolga mo'ljallangan. Shu sababli jamiyat rahbariyati korxonaning o'zida, xorijda va o'quv yurtlarida kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Tajribali mutaxassislar kasb-hunar kollejlari bilan yaqin hamkorlikda o'quv yurtlarida nazariy, “Plasteks” fabrikasida esa amaliy mashg'ulotlar o'tkazmoqda.

Bunday zamonaviy ishlab chiqarish komplekslari O'zbekistonning to'qimachilik salohiyati yuksalib borayotganidan dalolatdir. 2011 yilda «O'zbekengilsanoat» DAK yana 20 investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

2. 2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish.

Ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog'liq holda ildam rivojlanishini ta'minlash hamda buning negizida yangi ish joylarini yaratish, aholining bandligi va turmush darajasi uzluksiz o'sib borishini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar 2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

xorijiy va ichki moliyalashtirish manbalarini, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytirish, qurilish va industrial ishlab chiqarish komplekslarini yangilash asosida transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlari, muhandislik infratuzilmasi ob'ektlarini kompleks ravishda va ildam rivojlantirish hamda qurish;

respublikaning barcha mintaqalarini puxta birlashtiradigan yagona milliy avtomobil transport tizimini yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, O'zbekiston milliy magistrali tarkibiga kiradigan, xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, zamonaviy tsement-beton va asfalt-beton qoplamalar bilan ta'minlangan to'rt polosali yo'l uchastkalarini qurish va rekonstruktsiya qilishni kengaytirish, Qamchiq dovonidan o'tadigan avtomobil yo'llarini rekonstruktsiya qilish;

respublikaning temir yo'l transportini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, temir yo'llar rekonstruktsiyasini amalga oshirish, Toshkent-Samarqand yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyasini jihozlash hamda ishga tushirish, Buxoro va Qarshi shaharlarigacha bo'lgan temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, harakatdagi temir yo'l tarkibini zamonaviy yuqori unumli lokomotivlar, yuk tashuvchi va yo'lovchilarga mo'ljallangan vagonlar bilan yangilash;

havo kemalari parkini dunyoning etakchi Boeing va Aerbas aviakompaniyalarining zamonaviy, har jihatdan qulay va tejamli samolyotlari bilan tubdan yangilash hisobiga aviatsiyada tashishning moddiy-texnika bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ularga servis xizmati ko'rsatishni tashkil etish, Toshkent shahri va respublikaning viloyat markazlarida aeroportlar qurish va rekonstruktsiya qilish hamda uning negizida tranzitni ham hisobga olganda yuk tashish hajmlarini oshirish, aviatsiyada yo'lovchilar tashish darajasi hamda sifatini oshirish, asosiysi esa — ularning xavfsizligini ta'minlash;

zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, uyali aloqa hamda ma'lumotlarni keng yo'lakli uzatish tarmoqlarini kengaytirish, respublika mintaqalarida raqamli televideniaga bosqichma-bosqich o'tish;

transportda yuk tashishni tashkillashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan, ko'p maqsadli zamonaviy samarador transport-tranzit infratuzilmasini yaratish, har xil transport turlari - avtomobil, temir yo'l va aviatsiya transporti tomonidan transport xizmati ko'rsatishda tutashlikni ta'minlash, Angren shahridagi va Navoiy shahri aeroporti negizidagi logistika

intermodal markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyat yuritish samaradorligini oshirish;

xalqaro transport kommunikatsiyalariga qisqa yo'llar bilan chiqishni va tranzit yuk tashish ko'payishini, mintaqaviy hamda dunyo bozorlariga chiqishni kengaytirishni, eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish va milliy mahsulotlarni sotish bozorlarini kengaytirishni ta'minlaydigan yangi transport yo'laklarini shakllantirish;

milliy avtomagistral yoqasi va temir yo'llar bo'ylab infratuzilma va servis ob'ektlarini qurish hamda rekonstruktsiya qilish, avtomobil va temir yo'l magistrallarida qatnovchilar uchun xalqaro standartlarga javob beradigan shart-sharoitlarni yaratish, buning negizida yangi ish joylarini shakllantirish hamda aholining bandligini oshirish;

O'zbekiston milliy avtomagistralini rekonstruktsiya qilish va rivojlantirish uchun qo'shimcha zamonaviy yo'l-qurilish texnikasining o'z vaqtida xarid qilinishini ta'minlash, yo'l qurilishida zamonaviy qurilish texnologiyalarini, uskunalar hamda sifatli materiallarni qo'llash;

respublika mintaqalarida, ayniqsa qishloq joylarda, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini — suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektrlashtirish tizimlari va boshqalarni qurish, modernizatsiya va rekonstruktsiya qilishni kengaytirish, buning negizida aholini va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni suv va elektr energiyasi bilan ta'minlash darajasi hamda sifatini oshirish, shaharlarda va aholi punktlarida sanitariya-epidemiologiya holatini yaxshilash;

xomashyo, materiallar va energiya resurslaridan tejamkor foydalanishni ta'minlaydigan, energiya hamda resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan ishlab chiqarish infratuzilmasi, transport va kommunikatsiya ob'ektlarini qurish va foydalanishda ishlab chiqarish xarajatlari hamda tannarxini izchil pasaytirib borish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 avgustdagi R-3475-son farmoyishi bilan tuzilgan Ishchi guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, «O'zbekiston temir yo'llari» DAK, «O'zavtoyol» DAK, «O'zbekiston havo yo'llari» MAK va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan «2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi Dastur (keyingi o'rinlarda-Dastur) ma'qullangan, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish Dasturining asosiy maqsadli ko'rsatkichlari

O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi avtomobil yo'llari uchastkalarini qurish va rekonstruktsiya qilishning maqsadli parametrlari

infratuzilmani, transport va kommunikatsiyalarni kompleks rivojlantirishning maqsadli parametrlari

O'zbekiston milliy avtomagistrali bo'ylab yo'l yoqasi infratuzilmasi va servisini rivojlantirishning maqsadli parametrlari

infratuzilmani, transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalari ro'yxati

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, birlashmalar hamda korxonalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, boshqa manfaatdor tashkilotlar rahbarlari zimmasiga «2011 — 2015

yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi Dasturda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning to'liq hajmda va belgilangan muddatlarda sifatli amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi taqdimnomalariga ko'ra bozor kon'yunkturasi hamda transport va kommunikatsiya tarmoqlari rivojidadagi ehtimol tutilgan o'zgarishlarni nazarda tutib, Dasturning tasdiqlangan parametrlariga zarur hollarda aniqlik va qo'shimchalar kiritish huquqi berilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlarida 2011 yil hamda keyingi yillarda geologiya-razvedka ishlarining har yili tasdiqlanadigan dasturlari doirasida O'zbekiston milliy avtomagistrali uchastkalarini rekonstruksiya qilish va qurish uchun inert materiallar zaxirasini aniqlash bo'yicha geologiya-razvedka ishlarini olib borish ta'minlanadi.

5. «2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi Dasturga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan, respublikada ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, xomashyo va materiallar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar va uzellar, texnologik hujjatlar va jihozlar 2016 yilning 1 yanvariga qadar muddatga bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) ozod etiladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi har yili Investitsiya dasturini shakllantirishda «2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida»gi Dasturda nazarda tutilgan investitsiya loyihalari belgilangan tartibda unga kiritilishini nazarda tutadi.

3. 2015 yilga qadar investitsiya dasturiga muvofiq O'zbek Milliy avtomagistrali tarkibidagi 1487 km avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiya qilinishini rejalashtirish

Milliy matbuot markazida "O'zavtoyol" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun "Zamonaviy, ravon avtomobil yo'llari – obod turmushning muhim vositalaridan biri" mavzusida matbuot anjumani o'tkazildi.

Respublikamiz avtomobil yo'llar tarmog'i jami 184 ming km uzunlikda bo'lib, undan 42654 kilometri umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridir. Bundan tashqari, ichki xo'jalik qishloq avtomobil yo'llari, qishloq va shahar ko'chalari, korxonalariga qarashli yo'llar hamda idoraviy inspektorlik yo'llari ham mavjud.

2007 yil oktyabr oyida qabul qilingan "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida "O'zavtoyol" DAKning asosiy faoliyati etib maxsus vakolatli organ sifatida aynan umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, avtomobil yo'llari tarmoqlarini rivojlantirib, takomillashtirish istiqbollarini belgilash hamda sohada yagona texnik siyosatni olib borish kabi vazifalarga qaratilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Prezidentining 2006 yil 14 noyabrdagi Qaroriga asosan kompaniya tarkibida 13 ta hududiy yo'llardan foydalanish tashkilotlari, xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini saqlashga ixtisoslashtirilgan 7 ta mintaqaviy ta'mirlash-foydalanish korxonalari, 161 ta tuman yo'l xo'jaligi pudrat ta'mirlash-foydalanish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, kompaniya tarkibida Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti, o'quv markazlari, boshqa yo'l qurilish, maxsus burg'ulash-portlatish hamda sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatib kelmokda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrdagi "2011-2015 yillarda infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi qarori hamda qabul qilingan maqsadli Dasturlar izchillik bilan amaliy hayotga joriy qilinmokda.

2013 yilda xalqaro standartlarga javob beradigan 526 kilometrlik avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish, Qamchiq dovonida 71 kilometrlik avtomobil yo'li uchastkasida rekonstruksiya ishlarini yakuniga yetkazish, shu barobarda qator ko'prik va yo'l o'tkazgichlarni barpo etish mo'ljallanmokda. Bu borada "O'zavtoyol" davlat-aksiyadorlik kompaniyasida tegishli vazirlik va idoralar hamda joylardagi hokimliklar bilan birgalikda avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash hamda bu bo'yicha tegishli infratuzilmani rivojlantirishga doir amaliy choralar ko'rilmokda.

Jumladan, 2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturi ijrosi mobaynida bevosita "O'zavtoyol" DAK tarkibidagi korxonalar-tashkilotlar tomonidan joriy yilning shu davriga qadar O'zbek Milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi 59 km dan ortiq avtomobil yo'li 4 tasmali qilib, to'liq rekonstruksiya qilindi. Bular jumlasiga Qoraqalpogiston Respublikasi hududidan o'tuvchi, A-380 "G'uzor-Buxoro-Nukus-Beyneu" xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'lining 21 km qismi, "A-378" avtomobil yo'lining Samarqand va Buxoro viloyatlari hududlaridan o'tuvchi 4 km qismi, Qamchiq dovonining 6 km qismi va boshqa misollarni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, O'zbek Milliy avtomagistrali tarkibiga kiruvchi 21 km.dan ortiq avtomobil yo'llari kapital ta'mirlandi. Ulardan 18 km – xalqaro va davlat ahamiyatidagi, 3 km qismi esa – mahalliy ahamiyatdagi yo'llardir. Mazkur kapital ta'mirdan chiqqan yo'llar sirasiga – Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi 4 km, Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi 3 km hamda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi avtomobil yo'llarini keltirish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2013 yil 14 fevralda imzolangan "Obod turmush yili" Davlat dasturi to'g'risidagi Qarorda ham yo'l infratuzilmasini yaratishga alohida masala sifatida yondashilgan. Mazkur Qarorning 57-bo'limi to'lig'icha zamonaviy yo'llar va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda 2013 yilning o'zida yuqorida sanalgan Dasturlar»bilan hamohang tarzda 500 km dan ortiq avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash vazifasi qo'yilgan.

"Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 31 dekabrda qarori asosida umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llari va undagi yo'l elementlarini yil davomida soz holatda saqlash, ulardan transport vositalari muttasil va havfsiz o'tishini ta'minlash kabi ishlar kompaniya tizimidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Ushbu maqsadlarda o'tgan 2012 yilda 300,0 mlrd. so'mlik mablag'lar ajratilgan bo'lib, 2100 km atrofida yo'l qoplamalari ta'mirlandi.

2013 yilda esa umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarida yil davomida transport harakat xavfsizligini ta'minlash, mavsumiy bahorgi va kuzgi texnik ko'riklarida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf qilish maqsadida 350,0 mlrd.so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Joriy yilning 5 oyligida mazkur ishlarni amalga oshirishda 160,0 mlrd. so'mlik joriy ta'mirlash va saqlash ishlari bajarilib, 950 km atrofida yo'llar ta'mirlandi. Bu ishlarga misol tarzida Farg'ona viloyatining Farg'ona, Dang'ara, O'zbekiston tumanlaridagi, Jizzax viloyatining Bahmal va G'allaorol tumanlaridan o'tuvchi M-39 avtomobil yo'lidagi, Buxoro shahridagi umumiy foydalanuvda bo'lgan avtomobil yo'llari va boshqa hududlardagi joriy ta'mir ishlarini sanab o'tish mumkin.

"Obod turmush yili"da - "Navro'z" bayrami arafasida "O'zavtoyol" DAK yo'lsozlari tomonidan yurtdoshlarimiz uchun o'ziga xos tuhfa sifatida qabul qilingan 2 ta yangi ob'ekt haqida alohida to'xtalish kerak. Ular – Farg'ona vodiysi viloyatlarini birlashtiruvchi hamda ularning qulay va qisqa avtomobil yo'llari orqali bog'lanishini ta'minlovchi, 54 km uzunlikdagi "Qo'qon shahrini aylanib o'tish yo'li" hamda Sirg'ali tumanidagi aylanib o'tish yo'lining navbatdagi 8 km.lik qismlaridir. Ulardan biri haqida alohida to'xtaladigan bo'lsak, yangi-- "Qo'qon shahrini aylanib o'tish yo'li" Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri, Dangara, Uchko'prik va Buvayda tumanlari markazlarini aylanib o'tgan holda, masofani 14 km.ga qisqartirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, "Toshkent-Andijon" yo'nalishi bo'yicha bir kunda harakatlanayotgan 7000 dan ortiq avtotransport vositalarining yuqori tezlikda, vaqt va yoqilg'ini tejagai holda manzillariga yetishiga, Qo'qon shahri va unga tutash aholi yashash maskanlarini aylanib o'tish orqali ekologik muhitni sog'lomlashtirishga imkon beradi.

Shuningdek, Investitsiya dasturiga muvofiq 2015 yilga qadar yana O'zbek Milliy avtomagistrali tarkibidagi 1487 km avtomobil yo'llari qurilishi va rekonstruksiya qilinishi hamda to'rt tasmali yo'lga aylantirilishi, umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun qiymati 34,9 million AQSH dollarini tashkil

etgan 444 dona mashina-mexanizm texnikalari va uskunalar harid qilinishi, 24 ta yo'l qurilish va ta'mirlash korxonalarining ishlab chiqarish va sanoat bazalarini modernizatsiya qilish nazarda tutilgan. Matbuot anjumani davomida OAV vakillari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar oldilar.

4. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan investitsion dastur

2011-2015 yillarga mo'ljallangan investitsion dasturning dastlabki yillarida yani 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatida 514291,6 mln.so'mlik kapital mablag'lari o'zlashtirilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123% ni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarish sohasiga 241890,5 mln.so'm, shundan sanoat sohasiga 44655,1 mln.so'm, qishloq xo'jalik sohasiga 26101,8 mln.so'm, transport sohasiga 122440,9 mln.so'm, aloqa sohasiga 8809,3 mln.so'm, qurilish sohasiga 21550 mln.so'm, savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga 17616,7 mln.so'm, va boshqa sohalarga 716,7 mln.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi.

Noishlab chiqarish sohasiga 272401,1 mln.so'm, shundan uy-joy qurilishi sohasiga 190811,4 mln.so'm, kommunal sohasiga 9621,7 mln.so'm, aholiga maishiy xizmat sohasiga 11208,6 mln.so'm, sog'liqni saqlash sohasiga 11960,2 mln.so'm, xalq ta'limi sohasiga 19865,8 mln.so'm va boshqa sohalarga 28933,4 mln.so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi.

Kapital qo'yilmalar umumiy hajmining 6 foizini byudjet, 1,6 foizini erlarni meliorativ xolatini yaxshilash, 16 foizini korxonalar va mahalliy byudjet mablag'lari, 36,3 foizini aholi mablag'i, 13,6 foizini chet el investitsiya va kreditlari, 13,8 foizni bank kreditlari hamda 12,8 foizni byudjetdan tashqari mablag'lar tashkil etadi.

Xisobot davrida viloyat bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar 69767,4 mln.so'mni tashkil qilib, shundan hukumat kafolati bilan beriladigan investitsiya va kreditlar 55967,4 mln.so'mni, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar va kreditlar 13800 mln.so'mni tashkil qildi.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 603,5 ming kv.m. uy-joy (yillik rejaga nisbatan 106,6%), 55,5 km gaz tarmoqlari (138,8%), 115,7 km suv tarmoqlari (127,7%) foydalanishga topshirildi.

Viloyatning 2011 yilga mo'ljallangan hududiy investitsiya Dasturiga umumiy qiymati 35 mln. dollarlik 102 ta loyiha kiritilgan bo'lib, shundan 8 mln.dollari xorijiy investitsiyalardir. Mazkur loyihalar amalga oshirilishi natijasida 85,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilishi hamda 1500 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. 2011 yil 1 yanvar holatiga dastur doirasida 94 ta loyiha amalga oshirildi. Amalga oshirilgan loyihalar hisobiga (qo'shimcha loyihalarni ham hisobga olgan holda) 41,8 mln. dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilib, dastur prognozi 119 foizga bajarildi va 1380 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Dastur doirasida 10,6 mln. dollar miqdorida (jami investitsiyalar hajmida 25,3%) xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lib, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 8 mln. dollarni tashkil etgan (xorijiy investitsiyalar hajmida 75,5%). Amalga oshirilgan loyihalar hisobiga viloyatda yiliga qo'shimcha ravishda 91,8 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va shu jumladan 12,3 mln. dollarlik mahsulotlarni chet elga eksportga chiqarish imkoniyati yaratildi. Amalga oshirilgan loyihalarni sohalar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, hududiy investitsiya dasturi doirasida engil sanoat sohasida 5,6 mln. dollar (jami investitsiyalar hajmida 39,0%), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida 3,1 mln. dollar (21,8%), oziq-ovqat sanoatida 1,4 mln. dollar (9,5%), xizmatlar sohasida 1,5 mln dollar (10,0%) va sanoatning boshqa sohalarida 2,8 mln. dollarlik (19,8%) investitsiyalar jalb qilingan.

2011 yilning yanvar-dekabr oylarida pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchlari bilan 379 mlrd.so'mlik ish bajarildi, shundan davlat qurilish-montaj tashkilotlari tomonidan 3,9 foiz, nodavlat tashkilotlari tomonidan 96,1 foizga bajarildi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda PQ-1455-sonli qaroriga asosan viloyatda Respublika byudjeti hisobidan 46 ta ob'ektlar yangidan, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan bo'lib, 2012 yilning 1 yanvar xolatiga 11 ta xarbiy chaqiruv yig'uv punkti, 2 ta sog'liqni saqlash ob'ektlari, 3 ta qishloq vrachlik punktlari rekonstruksiya, 22 ta qishloq aholi punktlarida 49,1 km suv tarmoqlari, 5 ta maktablar, 3 ta arxivlar qurilib foydalanishga topshirildi. Byujetdan tashqari ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi hisobidan 25 ta ob'ektlarda rekonstruksiya va mukammal ta'mirlash rejalashtirilgan bo'lib, 2012 yilning 1 yanvar xolatiga 2 ta maktab va 1 ta kasb-hunar kolleji rekonstruksiya, 16 ta maktab va 5 ta kasb-hunar kollejlari mukammal ta'mirlanib foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan viloyatda jami 14 ta ob'ektlarda yangidan va rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, joriy yilning 1 yanvar xolatiga yangidan 1 ta suzish havzasi, 1 ta musiqa va san'at maktabi, 3 ta bolalar sporti maydonchalari, 1 ta sport kompleksi, 4 ta maktabga qo'shimcha sport zallar qurilishlari, 2 ta musiqa va san'at maktabi, 1 ta suzish havzasi rekonstruksiya qilinib foydalanishga topshirildi.

Respublika yo'l jamg'armasi hisobidan Investitsiya dasturiga ko'ra A-380 G'uzor-Buxoro-Nukus-Beynau yo'lining 440-553 km larini qayta qurish va tuproq ishlariga 93,8 mlrd.so'm hamda Urganch-Cholish-Beruniy aylanma yo'lidagi Amudaryo ko'prigi qurilishida 17,4 mlrd.so'mlik qurilish montaj ishlar amalga oshirildi.

Dasturga asosan sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi hisobidan viloyatda 11 ta ob'ektda 32,36 km uzunlikda, 7644 mln.so'm qiymatda rekonstruksiya ishlari rejalashtirilgan. Rekonstruksiya ishlari yildan yilga o'tuvchi Ozyorniy va Daryolik magistral kollektorini Turkmaniston hududida rekonstruksiya ishlari davom etmoqda. Yangiariq tumanidagi Ablko'l va Shovot tumanidagi Doudon va Shovot Andrey kallektorlariga meliorativ nasoslar qurish ishlari yakunlandi.

Shuningdek Divankul, G'ozovot Davdon va Ozerniy (3-etap) kallektorlarini rekonstruksiya qilish ishlari davom etmoqda. Rekonstruksiya ishlariga 20 ta zemnasos, 16 ta buldozer va 10 ta ekskavator jami 46 ta mexanizm jalb qilingan, 31 dekabr xolatiga rejalashtirilgan 31,86 km o'rniga 35,91 km bajarilib, 7854,6 mln. so'mik ishlar bajarildi. Shuningdek Shovot tumanidagi Shovot-Andrey kollektorini rekonstruksiya qilish va Xonqa tumanidagi «Al-Xorazmiy» nososniy stantsiya qurish ishlari davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prizidentining 2010 yil 8 sentyabrdagi "Qishloq joylarida uy-joy qurilishi va uni loyixalashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-1403-sonli qaroriga asosan 2011 yilda viloyatning 25 ta qishloq massivlarida namunaviy loyixalar asosida 570 ta uy-joylar qurilishiga jami 42,6 mlrd. so'mlik kapital mablag'lar o'zlatirilishi rejalashtirilib, 73 ta pudratchi tashkilotlar tanlab olindi va 41,9 mlrd.so'mlik pudrat shartnomalari imzolandi.

2011 yilda namunaviy loyihalar asosida 570 ta turar uy-joylar foydalanishga topshirilib, 42,6 mlrd.so'mlik kapital mablag'lar o'zlashtirildi bu esa yillik rejaga nisbatan 100 foizni tashkil qildi. Kapital mablag'larning umumiy xajmidan kurilish-

montaj ishlari 41,9 mlrd.so'mni tashkil qilib, yillik rejaga nisbatan 100 foizni tashkilqildi.

2011 yilda barpo etiladigan uy-joylar uchun tashqi muxandislik tarmoqlari, jumladan 24,2 km. gaz tarmog'i, 23,1 km suv tarmoqlari, 15,4 km elektr tarmog'ilari foydalanishga topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 19 iyundagi PQ-1134-sonli «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko'paytirishni rag'batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda umumiy qiymati 1281,7 mln. so'mlik 7 ta g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalar yangidan va modernizatsiya qilindi.

Mazkur loyihalar amalga oshirilishi natijasida 26,7 mln. dona g'isht ishlab chiqarilib, 100 dan ortiq ishchi o'rinlari yaratildi.

2012 yil 3 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi binosida Davlat mulki qo'mitasi va Xorazm viloyati hokimligi tashabbusi bilan biznes-forum bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri va viloyatda faoliyat yuritayotgan yuzga yaqin salohiyatli investorlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari vakillari, Xorazm viloyati hokimligi va Davlat mulki qo'mitasi mutasaddi xodimlari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Biznes-forum Xorazm viloyatining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga yaratilayotgan qulay imkoniyatlar haqida rivojlangan mahalliy va xorijiy investorlarga batafsil ma'lumotlar berish, shu orqali "Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi sub'yektlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Dasturi hamda "Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlarining eksport potentsialini oshirish bo'yicha 2012-2015 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan manzilli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Dasturi loyahasiga kiritilgan loyihalarga investorlarni ko'proq jalb qilish maqsadida o'tkazildi.

Shuningdek, tadbirda Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish hamda hududda sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiyalarni kengroq jalb qilish maqsadida "Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi sub'yektlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Dasturga kiritilgan loyihalarning taqdimoti namoyish qilindi.

Mazkur Dastur viloyat hududidagi ob'yektlar negizida ishga tushiriladigan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sohasi sub'yektlari bo'yicha 95 ta hamda tijorat banklari mas'ulligida viloyatda 2012-yilda Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish bo'yicha 263 ta loyihani o'z ichiga oladi. Mazkur loyihalar orqali viloyatga jami 147,9 mlrd.so'm va 102,0 mln.AQSh doll. miqdoridagi investitsiya yo'naltirilishi, natijada 5,2 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

Xususan, dasturda belgilangan Urganch shahridagi sobiq "Aloqa Vista" qo'shma korxonasi mulkiy majmuasi negizida elektrotexnika mahsulotlarini, Yangibozor tuman hokimligi hisobidagi qurilishi tugallanmagan ishlab-chiqarish ob'yekti negizida trikotaj mato va yengil sanoat mahsulotlarini hamda Qo'shko'pir tumanidagi "Yulduz" MChJga qarashli bino va inshootlar negizida ip-kalava mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga

qo'yish, shuningdek Gurlan tumanidagi sobiq "Gurlan poyafzal fabrikasi" mulkiy majmuasi negizida nooziq-ovqat iste'mol mollari ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida xorijiy investitsiya va mahalliy tijorat banklari kredit mablag'larini jalb qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan rejalar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Dasturga kiritilgan jami 95 ta, shu jumladan 12 ta yirik sanoat korxonalari va investitsiyaga muhtoj qolgan 83 ta ob'yektlarning barchasida yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha investitsiyalarni jalb qilishga doir loyihalar yuzasidan viloyatda mavjud qator imkoniyatlar, hududning o'ziga xos xususiyatlari, infratuzilma va kommunikatsiya tarmoqlarining mavjudligi, viloyatda ishchi kuchi potentsiali haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir davomida Dasturga kiritilgan loyihalar bilan birga mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham to'xtalib o'tildi.

Ayni paytda dasturga muvofiq, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kredit mablag'lari hisobiga foydalanilmasdan bo'sh turgan korxonalar va ob'yektlar negizida amalga oshirilishi rejalashtirilgan yengilsanoat (to'qimachilik, trikotaj mato, ip-kalava) mahsulotlarini ishlab chiqarilishini, "Urganch ekskavator zavodi" OAJ negizida temir yo'l vagonlarini kapital ta'mirlash, soha tizimi sub'yektlariga ehtiyot qismlari hamda meliorativ va qishloq xo'jaligi texnikalari uchun mexanizmlar ishlab chiqarilishini, viloyatda 1,2 ming boshdan ziyod zotli qoramol hamda 60,0 mingdan kam bo'lmagan naslli parranda boqishga ixtisoslashgan xo'jaliklar faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, viloyat uchun kamida 100 ta yangi qishloq xo'jaligi texnikalarini harid qilish orqali mavjud mashina-traktor parklarini zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash va yangi parklar yaratishga doir yirik loyihalar bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, biznes-forumda "Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlarning eksport potentsialini oshirish bo'yicha 2012-2015 yillarda amalga oshirilishi mo'ljallangan manzilli chora-tadbirlar to'g'risida"gi Dasturi loyihasi haqida ma'lumotlar keltirildi.

Unga asosan, viloyatdagi mavjud tarixiy ob'yektlarda hamda bugungi kunda foydalanilmasdan bo'sh turgan ob'yektlar negizida turli xildagi, arxeologik topilmalar, milliy kiyimlar, milliy cholg'u asboblari, mahalliy madaniyat osoru-atiqalari non, guruch, qovun-tarvuz va boshqa shu kabi yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtirgan muzeylar, suratlar galereyasi, turistlar uchun restoran va ko'ngil ochar maskanlar xizmatlarini, milliy xunarmandchilik buyumlari va ularni tayyorlash jarayonlari ko'rgazmalarini tashkil etish, viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun cho'l hududlarida kichik tuyalar karvonlarini tashkil etgan holda, turistlar sayohatlarini uyushtirish, cho'ldagi o'simliklar, qum barxanlari manzaralarini tomosha qilish uchun turistlarni jalb etish, to'qayzorlar manzaralari va ularning o'simlik dunyosi bilan turistlarni tanishtirish imkoniyatlarini yaratish, xususan:

- Bog'ot tumanidagi "Qalajik qal'asi" atrofida joylashgan, shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan ko'l negizida Markaziy Osiyoda yagona "O'lik dengizi" kabi davolanish-sog'lomlashtirish turistik majmuasini tashkil qilish;

- Xazarasp tumanidagi "Xazarasp qal'asi" hududidagi turistik infratuzilmani shakllantirish (magazinlar, umumiy ovqatlanish shahobchalari, suvinirlar sotiladigan lavkalar, amfiteart, sanitariya gigienik ob'yektlar qurish) va turistlarni kengroq jalb qilish;

- Shovot tumanidagi "Qalajiq qal'asi" atrofini obodonlashtirish va qal'aga olib boradigan yo'llarni rekonstruktsiya qilish orqali qulay turistik infratuzilmani shakllantirish;

- Xiva tumanidagi "Chor-dara" va "Bog'ishamol" xon bog'i hududida turistik infratuzilmani rivojlantirish orqali "Sayyohlar bog'i"ni barpo etish va shu kabi ko'plab samarali loyihalar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, mazkur tarixiy obidalarni va qadimiy boy ma'naviy meroslarimiz hamda qadriyatlarimizni dunyo turizm sohasiga keng namoyish etish orqali respublikaga xorijiy turistlarning tashrifini yanada ko'paytirish, ushbu tarixiy obidalar joylashgan tumanlarga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish maqsadida Urganch shahrida 7 ta, Xiva tumanida 6 ta yangi mehmonxona hamda ellikka yaqin yangi turistik ob'ektlar va ular bilan bog'liq turistik marshrutlar tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Tadbirda namoyish etilgan loyihalarga ishtirokchi salohiyatli investorlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari vakillari tomonidan katta qiziqish bildirildi va ularning Xorazm viloyatiga tashrifi haqida o'zaro kelishib olindi. Bunda viloyatda turizm, ishlab chiqarish va servis hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha tashkil etilgan investitsion guruhlar ular bilan bevosita uzviy bog'liq holda ishlashga tayyor ekanligi ma'lum qilindi.

Mazkur tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etilgan loyihalar to'plamini o'rganib chiqish, tegishligi bo'yicha konsulliklar va elchixonalar orqali xorijiy mamlakatlar kompaniyalari va tarmoq uyushmalari bilan aloqalar o'rnatilishini yo'lga qo'yish yuzasidan zarur ishlarni amalga oshirish hamda loyihalar to'plamining yo'nalishiga qarab kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, salohiyatli investorlar vakillarini tajriba almashish hamda malaka oshirish maqsadida xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga borishlarini tashkil etish maqsadida davlat boshqaruvi organi va tijorat banklari rahbarlari ishtirokida tashkil etilgan Respublika Ishchi guruhi tashabbuskorlar bilan birgalikda hamda masalalarni joyiga chiqqan holda ishlashga tayyor ekanliklari to'g'risida munosabat bildirildi.

Tadbir yakunida jurnalistlar uchun matbuot anjumani tashkil etilib, unda ommaviy axborot vositalari vakillari mazkur biznes-forum va uning ahamiyati xususida o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha to'liq javob olishdi.

5. Tarkibiy o'zgartirishlar va yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni rivojlantirish

2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dasturning amalga oshirilishi shu yilning to'qqiz oyida kimyo va neft-kimyosi (111,9 foiz), mashinasozlik va metallni qayta ishlash (111,8 foiz), qurilish materiallari (109 foiz), tibbiyot (131,3 foiz) va oziq-ovqat (114,7 foiz) sanoati kabi sohalarni jadal rivojlantirish imkonini berdi.

Hisobot davrida "Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston" qo'shma korxonasida avtomobil dvigatellarini, "Zenit elektroniks" qo'shma korxonasida energiya tejoychi lampalar, "Samsung" rusumidagi kir yuvish mashinalari, "NEO Sanlayt" qo'shma korxonasida maishiy gaz plitalari, sovutgichlar, "Rav Ekspres" (Toshkent shahri) mas'uliyati cheklangan jamiyatida maishiy elektr texnika uchun tozalagich mis trubkalar, "Vayt Meshin Teknoloji" (Nukus shahri) qo'shma korxonasida maishiy elektr chang yutgichlar, "Avtosanoatplast" (Chust shahri) mas'uliyati cheklangan jamiyatida avtomobillar uchun injeksion quyish uslubi yordamida plastik detallar, avtomobillar uchun rezina zichlagichlar (Andijon shahri), "O'zkabel" ochiq aksiyadorlik jamiyati qo'shma korxonasi va "Andijon kabel" qo'shma korxonasida yangi turdagi kabel-o'tkazgich mahsulotlar, "O'zmetkombinat" ochiq aksiyadorlik jamiyatida elektr uzatmalar uchun ko'p funksiyali energiya tejoychi qurilmalar, "Toshkent traktor zavodi" ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi va zamonaviy qishloq xo'jalik texnikasi, "O'z-Teksako" qo'shma korxonasida sintetik motor moylari, avtomobil simlari, diodli yorug'lik lampalari, kosmetika mahsulotlari, gigiyena vositalari ("Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi) va boshqa qator mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yangi yuqori texnologik quvvatlar ishga tushirildi.

Kuchlanish transformatorlari, kompressorlar, akkumulatorlar, yuqori voltli elektr apparaturasi, kabel-o'zkazgich mahsulotlar, kaliy o'g'itlari, dori-darmonlar va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi. Bu esa sanoatda uning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar jarayoni chuqurlashganidan dalolatdir.

Raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va ularning turlarini kengaytirishga doir amalga oshirilgan rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar natijasida shu yilning yanvar-sentabrda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish 11,4, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 14,2 va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,4 foizga o'sdi.

Yengil avtomobillar (3,2 foizga), bolalar velosipedlari (1,6 barobar), paypoq buyumlari (1,9 barobar), dorivor vositalar (1,6 barobar), o'quvchilar daftarlari (2,6 barobar), un (28,4 foiz), yorma (3,5 barobar), margarin mahsulotlari (1,7 barobar) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi oshdi.

Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida tijorat banklari tomonidan ishlab chiqaruvchi korxonalarga texnologik uskunalari, xomashyo va materiallar xarid qilish uchun 1194 milliard so'm, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun 590,2 milliard so'm (o'sish 1,4 barobar) va nooziq-ovqat iste'mol

tovarlarini ishlab chiqarish uchun 603,8 milliard so‘m (1,7 barobar) miqdorida kreditlar ajratildi.

Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish dasturlari doirasida joriy yilning to‘qqiz oyi davomida iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish bo‘yicha 740 loyiha (ushbu davr prognoziga ko‘ra 107,6 foiz), jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha 399 loyiha (105,6 foiz) va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha 341 loyiha (108,6 foiz) amalga oshirildi.

Shu yilning o‘tgan davri mobaynida 2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturi doirasida 1052 loyiha amalga oshirildi va ular bo‘yicha 5052,4 milliard so‘mlik yoki 2010 yilning shu davriga qaraganda 19,8 foiz ko‘p mahsulot ishlab chiqarildi. Import o‘rnini bosishning hisob-kitob qilingan samarasi 3 milliard dollardan oshdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakatimiz hududlarining eksport salohiyatini rivojlantirish, shu jumladan eksport qilinadigan mahsulotlar turlarini kengaytirish va ularni ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, an‘anaviy sotish bozorlaridagi pozitsiyalarni mustahkamlash va yangi tashqi bozorlarni o‘zlashtirishga doir ko‘rilgan faol chora-tadbirlar natijasida tovar va xizmatlar eksporti 21,4 foizga o‘tdi.

Eksport qilinadigan asosiy guruh tovarlari nuqtai nazaridan oziq-ovqat mahsulotlari eksporti (167,7 foiz), kimyo tovarlari (138,7 foiz), qora va rangli metallar (134,2 foiz), mashina va uskunarlar (162,6 foiz), xizmatlar eksporti (130,3 foiz) yuqori sur‘atda o‘tdi. Natriy selitrasi, poliakrilamid, yuk avtomobillari, jez prokat, kompozit panellar, gipsokarton buyumlar, tez muzlatilgan mahsulotlar va boshqa yangi turdagi tovarlar eksport qilindi.

2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi dasturning amalga oshirilishi hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishi hisobot davrida bank tizimi jami kapitalini o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30,9 foiz, mijozlarning jalb qilingan banklardagi depozitlarini 48,5 foiz, kredit tashkilotlarida aholi mablag‘larini 1,5 barobar ko‘paytirish imkonini berdi. 2011 yilning 1 oktabr holatiga ko‘ra, kredit tashkilotlarida aholi depozitlari umumiy miqdoridagi muddatli va jamg‘arma omonatlari ulushi 87,3 foizni tashkil qildi va bu banklar jami aktivlarini 33,5 foizga oshirish imkonini berdi. Banklar resurs bazasining oshirilishi ularni iqtisodiyotning real sektori korxonalariga kredit ajratish imkoniyatini kengaytirdi: banklarning real sektorga yo‘naltirilgan kapital qo‘yilmalari qoldiqlari 35,6 foizga o‘tdi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun joriy yil to‘qqiz oyida tijorat banklari tomonidan jami 3,2 trillion so‘mlik yoki 2010 yilning shu davriga qaraganda 34 foiz ko‘p kredit ajratildi. Tijorat banklari eksportchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida aylanma kapitalni to‘ldirish uchun 258,3 milliard so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratdi.

Xulosa

2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozorida o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

Inflyatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi. Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Bugungi kunda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonimiz chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlatimiz qarz hajmining ulushini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'-e'tiborini saqlab qolishga erishdi. 2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning jami tashqi qarzlari miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizdan oshmagan, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha "o'rtachadan ham kam" darajada baholangani buni isbotlab bermoqda.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.

Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi.

Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yoʻnaltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, eʼtiborga molik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining oʻtgan yil natijalarini baholaganda, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi missiyasi rahbari Veronika Bakalu xonimning ushbu missiyaning Oʻzbekistonda 2012-yil noyabr-dekabr oylaridagi ishi natijalari boʻyicha bildirgan fikrlarini keltirish oʻrinli, deb bilaman. Uning taʼkidlashicha, “Oʻzbekiston iqtisodiyoti jadal surʼatlar bilan oʻsmoqda. Soliq-byudjet va tashqi faoliyat sohalaridagi mustahkam pozitsiya, bank tizimining barqarorligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning salbiy oqibatlaridan himoya qildi”.

Oʻylaymanki, bunday xolisona baho koʻp narsadan dalolat beradi.

2012-yilda mamlakatimizning yuqori surʼatlar bilan barqaror oʻsishini taʼkidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yoʻnaltirilgan kapital mablagʻlar, investitsiyalar tobora oʻsib borayotganida, bu koʻrsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

Oʻtgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi koʻrsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga oʻsdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortigʻini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan koʻprogʻi toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalardir.

Eʼtiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yoʻnaltirildi.

Shu borada faqat oʻtgan yilning oʻzida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq boʻlgan kapital qoʻyilmalar oʻzlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya obʼekti qurib bitkazildi.

2012-yilda qurilishi nihoyasiga yetkazilgan eng yirik obʼektlar haqida gapirganda, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida Yaponiyaning “Mitsubishi” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega boʻlgan bugʻ-gaz qurilmasining ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi yiliga qoʻshimcha ravishda 2 milliard 800 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, bu loyiha hisobidan shartli yoqilgʻi isteʼmolini 1,8-marta kamaytirishga, har yili 400 million kub metr gazni tejash yoki 110 million dollardan ortiq mablagʻni iqtisod qilishga erishamiz.

Avtomobil sanoatida Germaniyaning dunyoga mashhur “MAN” kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega boʻlgan yangi kompleksni bunyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlandi. Ushbu korxonada jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan yuqori texnologik ishlab chiqarish tashkil etildi. Aytish kerakki, katta hajmdagi yuklarni tashiydigan eng zamonaviy avtomobillar ishlab chiqaradigan mazkur korxonada nafaqat mamlakatimiz ehtiyojini qoplaydi, balki bu mashinalarni eksport qilishni ham taʼminlaydi.

2013-yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish koʻlamini yanada kengaytirish alohida oʻrin tutishi zarur.

Shu borada barchamiz bir fikrni chuqur anglab olishimizni istardim. Qishloqlarda takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish va qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirish – bu, avvalo, odamlarimizning turmush tarzi va mentalitetini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha ezgu maqsadlarni ko‘zlaydigan qishloq aholisi hayotini sifatli tashkil etish va yaxshilashga doir uzoq muddatli davlat dasturining asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi.

Zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lgan yangi va ko‘rkam uy-joy massivlarini barpo etish – mamlakatimiz qiyofasini har tomonlama obod qilishga qaratilgan, istiqbolga mo‘ljallangan muhim vazifamizdir.

Ana shu istiqbol rejalaridan kelib chiqqan holda, joriy yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi uy-joylar qurishni 8,5 mingtadan 10 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. 2013-yilda bu maqsadlar uchun 1 trillion 400 milliard so‘m, ya’ni o‘tgan yilga nisbatan 54 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish mo‘ljallangan.

Bu borada shuni e’tiborga olish kerakki, mazkur maqsadlar uchun tuzilayotgan pudratchi qurilish-montaj tashkilotlari, barcha hududlarda shakllantirilayotgan ularning kuchli moddiy-ishlab chiqarish bazasi nafaqat uy-joylar, balki sanoat va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarini qurishga ham jalb etiladi.

2013-yil va undan keyingi yillarda dasturiy vazifalarimizni amalga oshirishda yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur’atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liq ekani haqida gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan dasturlarda yaqin istiqbolda yangi energetika quvvatlarini, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 26 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bular, avvalambor, Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasida umumiy quvvati 900 megavolt bo‘lgan ikkita bug‘-gaz qurilmasini, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida quvvati 370 megavoltni tashkil etadigan bug‘-gaz qurilmasini, Angren issiqlik elektr stansiyasida quvvati 130-150 megavoltdan iborat energoblokni, Farg‘ona vodiysida yangi energetika quvvatlarini barpo etish, Sirdaryo va Yangi Angren issiqlik elektr stansiyalarini bir-biri bilan bog‘laydigan yuqori voltli elektr uzatish tarmog‘ini qurish, Ustyurt gaz-kimyoy majmuasining tashqi energiya ta’minotini tashkil etish kabi muhim strategik loyihalardir.

Mazkur ob’ektlar qurilishining yakunlanishi va ishga tushirilishi mamlakatimiz butun energiya tizimini, avvalambor, texnik jihatdan tubdan qayta jihozlash, o‘z energiya resurslarimiz hisobidan mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur tizim faoliyati samaradorligini oshirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va uzatish jarayonida sarf-xarajatlar va texnik yo‘qotishlarni sezilarli darajada qisqartirish, energetika resurslari tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi.

“O‘zbekenergo” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi bug‘-gaz elektr stansiyalarini qurish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, elektr energiyasi iste’moli hisobini

yuritish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni transportirovka qilishda texnologik yo‘qotishlarni qisqartirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralarni ko‘rishi darkor.

2013-yilda xalqaro standartlarga javob beradigan 526 kilometrlik avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish, Qamchiq dovonida 71 kilometrlik avtomobil yo‘li uchastkasida rekonstruksiya ishlarini yakunlash, shuningdek, qator ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarni barpo etish rejalashtirilmogda. Ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so‘m, shu jumladan, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 870 milliard so‘mdan ortiq hamda xalqaro moliya institutlari – Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhining qariyb 120 million dollarga teng mablag‘larini yo‘naltirish ko‘zda tutilmogda.

“O‘zavtoyol” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash hamda yo‘llar bo‘yida tegishli infratuzilmani rivojlantirishga doir belgilangan vazifalarni so‘zsiz bajarish yuzasidan amaliy choralar ko‘rishi lozim.

Temir yo‘l kommunikatsiyalari tizimini jadal rivojlantirishga, yuk tashish hajmining asosiy qismini ta‘minlaydigan kommunikatsiya tarmoqlari bilan mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli tarzda bog‘lashga biz alohida e‘tibor qaratmogdamiz. Joriy yilda bu borada 16 ta investitsiya loyahasini amalga oshirish ko‘zda tutilmogda.

Birinchi navbatda, 140 kilometrlik “Maroqand – Qarshi”, 325 kilometrlik “Qarshi – Termiz” temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirishni tugatish, shuningdek, harakatlanadigan tarkibni modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilmogda.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi ushbu loyihalarni amalga oshirishning borishini yana bir bor tanqidiy baholashi va tarmoq jadvallariga aniqliklar kiritib, ularning so‘zsiz bajarilishini ta‘minlashi lozim.

Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmogda. Biz o‘zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha tub va ijobiy ma‘nodagi portlash effektini beradigan o‘zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo‘ladi. Biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko‘rsatishning ko‘plab turlari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg‘or mamlakatlar safiga qo‘shilishimiz zarur.

Joriy yilning o‘zida Jizzax, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida beshta raqamli televizion uzatgich o‘rnatish yo‘li bilan raqamli televideniye rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish va mamlakatimiz aholisini raqamli televideniye bilan qamrab olish darajasini 42 foizdan 45 foizga yetkazishni ta‘minlash lozim.

Dasturda keltirilgan statistik ko‘rsatkichlar, raqam va faktlar tahlili ijtimoiy soha, aholining o‘rtacha umr ko‘rishi va turmush darajasidagi ijobiy o‘zgarishlar istiqloq yillarida mamlakatimizni tubdan isloh etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha har tomonlama puxta hamda chuqur o‘ylangan dasturni amalga oshirish samaralari ekanini ifodalaydi.

Dasturda qayd etilganidek, keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, mavjud resurslar va imkoniyatlarni jalb etish, islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish, aholi hayot sifati va jami daromadini bosqichma-bosqich ko‘paytirib borish, pirovard natijada, o‘z oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadimizga erishish – iqtisodiy jihatdan rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo‘shilish hamda jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash imkonini beradi.

Mamlakatimizning yetakchi iqtisodchilari, ilmiy-tadqiqot institutlari ishtirokida tayyorlangan ushbu dastur, birinchi navbatda, yoshlarda, ya’ni kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabalarida katta qiziqish uyg‘otishi, keng doiradagi mutaxassislar, olimlar, o‘qituvchilar, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari uchun foydali qo‘llanma bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islm Karimovning 2010-yil 15-dekabrda qabul qilgan "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ 1442-sonli qarori
(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 50-son, 472-modda; 2011 y., 50-son, 512-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda "2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida"gi PQ-1446-sonli qarori
(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 52-son, 512-modda; 2011 y., 50-son, 512-modda; 2013 y., 45-son, 584-modda)
O'zbekiston Respublikasini mustaqillik yillarida iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari to'g'risidagi statistik to'plam
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

5. I.A.Karimov. "Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". –Toshkent, O'zbekiston.: 2010
- 6.Karimov I.A. "Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " O'zbekiston.: 2009.
7. Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.23.01.09.
8. I.A.Karimov "Erishilgan yuruqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim" Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.
9. I.A.Karimov "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir ". T. O'zbekiston 2005

Darsliklar

10. B.Yu.Xodiyev, A.Sh.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari " nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
11. Oleynik A.N. Institutsionalnaya ekonomika: Uchebno-metodicheskoe posobie. M., 2008.
12. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: "Sharq ", 2006.
13. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: 2005.

14. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O`rmonov N. Iqtisodiy ta`limotlar tarixi. T.: “Moliya”. 2002.

O`quv qo`llanmalar

15. Ishmuxamedov A.E., va boshalar, Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari o`quv kullanma -T.: TDIU, 2004.-160 c.

16. Ishmuxamedov A.E., Askarova M.T. “O`zbekiston milliy iqtisodiyoti ” -o`quv qo`llanma -T: O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2004. – 256 bet.

Statistika to`plamlari ma`lumotlar

17. Promishlennost respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. - T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 67b.

18. Investitsii respubliki Uzbekistan 2009. Statisticheskiy sbornik. – T.: Goskomitet RUz po statistike, 2010. – 86b

Internet saytlari

18. www.economy.gov.ru

19. www.uza.uz

20. uzland.uz

21. www.stability.uz

22. Lex.uz